



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA
TARBIYA TENDENSIYALARIDA
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARINING
STRATEGIYASI VA YONDASHUVLARI”
mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya**





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
KREATIV PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TARBIYA TENDENSIYALARIDA
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARINING STRATEGIYASI VA
YONDASHUVLARI”**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
TO‘PLAMI
2025-YIL 21-22 APREL**

**СБОРНИК СТАТЕЙ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ, ПОСВЯЩЕННОЙ ТЕМЕ: «СОВРЕМЕННЫЕ
ТЕНДЕНЦИИ В ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ: СТРАТЕГИИ И
ПОДХОДЫ ПЕДАГОГИКИ И ПСИХОЛОГИИ»**

21-22 апреля 2025 года

NAMANGAN – 2025

“Zamonaviy ta’lim va tarbiya tendensiyalarida pedagogika va psixologiya fanlarining strategiyasi va yondashuvlari” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiali. Namangan davlat pedagogika instituti 21-22 aprel 2025-yil \ Bosh muharrir D.Oribboyeva Namangan: 2025.-956 b

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-289-son Qarorlarida belgilangan tadbirlar ijrosini ta’minlash maqsadida **“Zamonaviy ta’lim va tarbiya tendensiyalarida pedagogika va psixologiya fanlarining strategiyasi va yondashuvlari ”** mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.

Konferensiya materiallaridan pedagoglar, oliy ta’lim muassasalari talabalari, magistrlar, doktorantlar va professor-o‘qituvchilar foydalanishi mumkin.

Taqrizchilar:

M.Nishanov – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent;
Z.Kurbonova – dotsent.

Tashkiliy qo‘mita:

B.Xusanov – Namangan davlat pedagogika instituti rektori;
M.Qodirxonov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor;
J.Yuldashev – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i;
D.Oribboyeva – Pedagogika va psixologiya kafedrasini mudiri, dotsent;
T.Ismoilov – Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasini professori;
N.Mamatxanova – Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasini v.v.b dotsenti;
S.Sulaymonova – Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasini v.v.b dotsenti;
B.Qayumov – Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasini katta o‘qituvchisi;
A.Siddiqov – Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasini o‘qituvchisi;
A.Kamalova – Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasini o‘qituvchisi;
N.Goipova – Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasini o‘qituvchisi;
M.Roziqova – Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasini o‘qituvchisi;
G.Rustamova – Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasini o‘qituvchisi

“Zamonaviy ta’lim va tarbiya tendensiyalarida pedagogika va psixologiya fanlarining strategiyasi va yondashuvlari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2025 yil 18 apreldagi № 4 kengaytirilgan yig‘ilishida muhokama qilinib, ilmiy to‘plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan.

Maqolalarning to‘g‘ri va aniqligiga mualliflar mas’uldir.

boradi. Do'stlar orttiradi. Bunday paytda ota-onalar farzandlarining tarbiyasiga yanayam e'tiborliroq bo'lishlari talab etiladi.

Abdulla Avloniy tarbiya masalasi faqatgina ilm yoki fikr tarbiyasi bilan cheklanib qolmasligini ta'kidlaydi. U falsafiy tomondan qarab, fikr tarbiyasini badan tarbiyasi bilan yonma-yon ishlatadi. Jism bilan ruhning uzviy birligi haqida so'z ochadi: "Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila tersi kabitur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo'yub, astarini yuvub, ovora bo'lmoq kabiturki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur.". Yana bir o'rinda esa "badan elak kabi ko'zluqdur" degan gap uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning tarbiyasida oilaning roli va o'rni, muhitning ahamiyati kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 1-jild. – Toshkent "Ma'naviyat" 2009
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 2-jild. – Toshkent "Ma'naviyat" 1998
3. Mamatxanova N.T. Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda "ijtimoiy pedagogika" fanining o'rni. Pedagogika va psixologiya: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2021. – 14b.
4. Маматханова Н.Т. Особенности подготовки будущих учителей к социально-педагогической деятельности//Общество и инновации: электронный научный журнал. - 2021. № 2, 6/S. –С. 261–268.

TALABALARNI MILLIY KONTENT ASOSIDA O'QITISHNING SAMARADORLIGI

Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich

Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Email: abdurasmirzaakbarov95@gmail.com

Tel: +998934941808

UDK 372.891

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarni milliy kontent asosida o'qitishning samaradorligi, uning ta'lim sifatiga ta'siri va zamonaviy oliy ta'lim muassasalaridagi ahamiyati muhokama qilinadi. Milliy kontentni ta'lim jarayoniga integratsiyalash orqali talabalarning madaniy o'ziga xoslikni anglashi, o'quv motivatsiyasi va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqola milliy kontentning ta'limdagi o'rni, uning afzalliklari va amaliy joriy etish yo'llarini tadqiq etishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: milliy kontent, ta'lim sifati, oliy ta'lim, madaniy o'ziga xoslik, o'quv motivatsiyasi, samaradorlik.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli qarori oliy ta'limni zamon talablariga moslashtirishni maqsad qilib qo'ygan[1]. Bu jarayonda milliy kontentni joriy etish orqali mahalliy iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan mutaxassislar tayyorlashni yanada samarali qilish mumkin. Masalan, qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ta'lim dasturlarida mahalliy agrotexnologiyalar yoki an'anaviy dehqonchilik usullarini o'rganish talabalarning amaliy ko'nikmalarini oshiradi. Zamonaviy ta'lim tizimida sifat masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Oliy ta'lim muassasalari abituriyentlarni jalb qilish va global raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun ta'lim jarayonini doimiy ravishda takomillashtirilib boriladi. Shu nuqtai nazardan, milliy kontentni ta'lim dasturlariga kiritish nafaqat madaniy merosni saqlash, balki talabalarning o'quv jarayoniga qiziqishini oshirish va ularning ijtimoiy mas'uliyatini mustahkamlashda muhim omil sifatida qaralmoqda. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlarda milliy kontent asosida ta'lim berish orqali mahalliy ehtiyojlarga mos kadrlar tayyorlash va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review// Литературный обзор). Ta'limda milliy kontentdan foydalanish masalasi bo'yicha tadqiqotlar o'tgan asrdan boshlab olib borilgan. Masalan, rus olimlari F.R. Filippov va M.N. Rutkevich ta'lim jarayonini ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'lash zarurligini ta'kidlagan [2]. Xorijiy tadqiqotchilar orasida R.I. Miller AQSh oliy ta'limida sifat harakatining evolyutsiyasini tahlil qilib, ta'limning mahalliy kontekstga moslashuvi muhimligini qayd etgan [3]. Bangladeshlik olim Naureen Rahnuma esa rivojlanayotgan mamlakatlarda sifat madaniyatini shakllantirishda milliy xususiyatlarni hisobga olish zarurligini ko'rsatgan [4]. O'zbekistonda bu borada tadqiqotlar hali keng ko'lamda rivojlanmagan bo'lsa-da, so'nggi yillarda milliy qadimiyatlarni ta'lim dasturlariga integratsiyalash bo'yicha qadamlar qo'yilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology//Методология исследования). Milliy kontentning ta'lim samaradorligiga ta'sirini o'rganish uchun bir nechta yangi metodlar va yondashuvlar qo'llanildi. An'anaviy adabiy tahlil va solishtirma usullardan tashqari, tajribaviy-kompleks metodologiya ishlab chiqildi, bu esa milliy kontentning ta'lim jarayonidagi samaradorligini aniqroq baholashga imkon berdi. Quyidagi uchta asosiy bosqich tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi:

1. O'zbekistonning oliy ta'lim muassasasida Namangan pedagogika institutida tanlangan tajriba guruhlari tuzildi. Bir guruhga milliy kontentga asoslangan maxsus dastur (o'zbek adabiyoti, tarixi va mahalliy iqtisodiy masalalar bo'yicha materiallar) qo'llanilgan holda ta'lim berildi, ikkinchi guruh esa standart dastur asosida o'qitildi. Har bir guruhning o'quv natijalari, motivatsiya darajasi va ijtimoiy faolligi 3 oylik davr mobaynida monitoring qilindi. Bu usul orqali milliy kontentning bevosita ta'siri eksperimental tarzda o'lchandi.

2. Tadqiqotda talabalarining o'quv natijalarini baholash uchun miqdoriy ma'lumotlar tahlil qilindi. Bu yondashuv milliy kontentning nafaqat akademik ko'rsatkichlarga, balki talabalarining psixologik holati va madaniy o'zlikni anglash darajasiga ta'sirini aniqlashda yangilik sifatida qo'llanildi.

3. Tadqiqotda milliy kontentning mahalliy sharoitlarga mosligini o'lchash uchun yangi indeks ishlab chiqildi. Ushbu indeks ta'lim dasturlarining milliy xususiyatlarga moslashuv darajasini 0 dan 100 gacha bo'lgan shkala asosida baholaydi. Indeksni hisoblashda o'qituvchilarning fikrlari, talabalarining bilim darajasi va dastur mazmuni tahlil qilindi. Bu usul milliy kontentni joriy etishning samaradorligini obyektiv baholashga xizmat qildi.

Tadqiqotda O'zbekiston oliy ta'lim muassasidagi mavjud tajribalar bilan birga Rossiya va Bangladesh kabi davlatlarda milliy kontentni qo'llash bo'yicha amaliyotlar solishtirildi. Baholash mezonlari sifatida o'quv motivatsiyasi, madaniy o'zlikni anglash darajasi va kasbiy tayyorgarlikning ijtimoiy ehtiyojlarga mosligi tanlandi. Ushbu metodologik yondashuvlar milliy kontentning ta'lim sifatiga ta'sirini chuqurroq va ilmiy asosda o'rganish imkonini berdi.

Tahlillar va natijalar (Analyses and results//Анализы и результаты). Milliy kontent asosida ta'lim berishning samaradorligi bir qator omillar bilan bog'liq. Birinchidan, milliy qadimiyatlar va mahalliy kontekstga asoslangan materiallar talabalarda o'quv jarayoniga qiziqishni oshiradi. Masalan, o'zbek xalq og'zaki ijodi, tarixiy shaxslar yoki milliy san'at unsurlari kabi mavzular talabalarining o'z madaniyatiga yaqinlik hissini kuchaytiradi. Ikkinchidan, bunday yondashuv talabalarda ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantiradi, chunki ular o'z jamiyatining rivojlanishiga hissa qo'shish imkoniyatini ko'radi. Uchinchidan, milliy kontent iqtisodiyotning real ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy tajribada ham shunga o'xshash yondashuvlar mavjud. Rossiyada ta'lim sifatini baholashda ish beruvchilar talabi va mahalliy ehtiyojlar asosiy mezon sifatida qabul qilinadi [5]. Bangladeshda esa milliy sifat tizimi mahalliy universitetlarning strategik rejasiga moslashtirilgan [4]. Bu tajribalar O'zbekistonda milliy kontentni yanada kengroq qo'llash imkoniyatini ko'rsatadi.

Xulosa (Conclusion//Заключение). Talabalarni milliy kontent asosida o'qitish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki jamiyatning madaniy va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shishning samarali usuli sifatida ko'rilishi mumkin. O'zbekistonda bu yondashuvni kengroq joriy etish

uchun ta'lim dasturlarini mahalliy kontekstga moslashtirish, professor-o'qituvchilarni ushbu jarayonga jalb qilish va davlat siyosati doirasida qo'llab-quvvatlash zarur. Shunday qilib, milliy kontent ta'lim jarayonida muvozanatli qo'llanilganda, u talabalarning o'quv samaradorligini oshirish bilan birga, mamlakatning global miqyosdagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/3765925>
2. Filippov, F.R. (1978). Ta'lim va ijtimoiy ehtiyojlar. Moskva: Nauka.
3. Miller, R.I. (1996). The Quality Movements in Higher Education in the United States. Higher Education in Europe, Vol. XXI, № 2-3.
4. Rahnuma, N. (2020). Evolution of quality culture in an HEI: critical insights from university staff in Bangladesh. Quality in Higher Education, 26(1), 40-56.
5. RAEX (2023). Rating of universities by studying conditions. https://raex-rr.com/education/universities/rating_of_universities_by_studying_conditions

TALABALARNI MILLIY KONTENT ASOSIDA O'QITISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI

Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich

Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Email: abdurasulmirzaakbarov95@gmail.com

Tel: +998934941808

Mirzakarimova Noila Donyor qizi

Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Email: noila1917@gmail.com

Tel: +998 97 052 03 77

UDK 372.891

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim muassasalarida milliy kontentni o'quv jarayoniga joriy etish masalasi madaniy o'zlikni saqlash va ta'limning ijtimoiy ahamiyatini oshirish nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolada talabalarni milliy kontent asosida o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari, uning maqsadlari, vazifalari, yo'nalishlari va natijalari muhokama qilinadi. Tadqiqot milliy qadimiyatlar va an'analarga asoslangan ta'limning talabalarda o'ziga xoslik hissini shakllantirishdagi rolini o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, milliy kontent, o'quv jarayoni, madaniy o'zlik, pedagogik diagnostika, milliy qadimiyatlar, o'quv dasturi.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli qarori va Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 - iyundagi 467-sonli qarori asosida milliy kontentni ta'limga kiritishning huquqiy asoslari o'rganish orqali ta'limdagi o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi [1]. Zamonaviy ta'lim muassasalarida milliy kontentni o'qitish jarayoniga integratsiya qilish masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Globallashuv sharoitida ta'lim tizimlari ko'pincha mahalliy madaniy elementlarni yo'qotish xavfi ostida qolmoqda, bu esa o'quv jarayonini milliy qadimiyatlar bilan boyitish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari milliy merosni saqlash va zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlash vazifasini birgalikda amalga oshirishga intilmoqda.

Adabiyotlar tahlili (Literature review// Литературный обзор). Milliy kontentni ta'limga joriy etish bo'yicha tadqiqotlar o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab olib borilgan. Rus pedagogi K.D. Ushinskiy o'z ishlarida ona tili va milliy madaniyatning ta'limdagi ahamiyatini ta'kidlagan[5]. Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasi esa ta'lim jarayonida madaniy kontekstning rolini yanada chuqurroq ochib bergan[6]. Xalqaro miqyosda Freire ta'limning

BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA SHAXSLARARO MUNOSABAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA AXLOQIY TARBIYANING AHAMIYATI	421
<i>Nuriddinova Diyora Isaqali qizi</i>	
YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA OILANING O‘RNI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR	421
<i>Boymirzayeva Dilshoda Mansurali qizi</i>	
YUQORI SINFI O‘QUVCHILARIDA FAOL FUQAROLIK POZITSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI VA METODIK TIZIMI	427
<i>Abdullayev Dilshodbek Yuldashali o‘g‘li</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYA ORQALI MAKTABGACHA KATTAYOSHDAGI BOLALARNI KASBGA QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	431
<i>Gazibekova Gulavza Ergashevna, Isabekova Dilafruz Shermirzayevna</i>	
BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH	433
<i>Isabekova Dilafruz Shermirzayevna, Qudratullayeva Sabrina</i>	
O‘QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI	435
<i>Begmatova Nasiba Safarbayevna</i>	
“PEDAGOGIK TA‘LIM KLASTERI” TIZIMI ASOSIDA “MAKTAB LABORATORIYA” INNOVATSION LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOSLIGI	437
<i>Azimova Odinaxon Abduqodir qizi</i>	
PEDAGOGIK KOUCHING VOSITASIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	441
<i>Yarmatov Raximboy Baxramovich, Akramova Zuxra Botir qizi</i>	
YANGI O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA‘LIMNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH	446
<i>Saltanat AKILBEKOVA</i>	
TANQIDIY FIKRLASHNI TA‘LIM TIZIMIDA RIVOJLANTIRISH USULLARI	448
<i>Akbaraliyeva Marjonaxon Xurshid qizi</i>	
SWOT TAHLILI ASOSIDA TALABALARNING TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	449
<i>Saidabonu Abdusalomova</i>	
ABDULLA AVLONIYNING ASARLARIDA TARBIYA MASALASINING TALQINI.	451
<i>Abduraxmonova Nozimaxon Nozimjon qizi</i>	
TALABALARNI MILLIY KONTENT ASOSIDA O‘QITISHNING SAMARADORLIGI	453
<i>Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich</i>	
TALABALARNI MILLIY KONTENT ASOSIDA O‘QITISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI	455
<i>Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich, Mirzakarimova Noila Donyor qizi</i>	
YOSH AVLODNING TA‘LIM VA TARBIYASIDA SEHRLI ERTAKLARNING AHAMIYATI	457
<i>Abdullayeva Xurshidaxon Ne‘matjonovna</i>	
MAKTABDA METODIK ISHLARNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLLARI	460
<i>Jurabayeva Zarnigor Zoxidjon qizi, Payzibayeva Ruxshana Okiljonovna</i>	

Ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TARBIYA TENDENSIYALARIDA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARINING STRATEGIYASI VA YONDASHUVLARI” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

**Сборник статей международной научно-практической конференции, посвященной теме:
«СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ: СТРАТЕГИИ И
ПОДХОДЫ ПЕДАГОГИКИ И ПСИХОЛОГИИ»**

*Ответственность за аутентичность и точность цитат, имен, названий и иных сведений,
а также за соблюдение законов об интеллектуальной собственности несут авторы
публикуемых материалов.*

Tahririyat:

Mas’ul muharrir: D.Oribboyeva
Mas’ul muharrir o‘rinbosari: M.Roziqova
Texnik muharrir: A.Siddiqov

Bosishga ruxsat etildi 24.04.2025-y.
Bichimi 60x90 ¹/₁₆. Xajmi 59,75 bosma taboq.
Times New Roman garniturası. Ofset usulida bosildi.
Adadi 100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

“Yashin sanoat” xususiy korxona bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Namangan shahri, Hamroh ko‘chasi, 71^A-uy.